



XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr

VI-52-196-9-131-K/22

Shirin shahar hokimligi

2023-yilgi Shirin shahar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24, 25-moddalari, Budget Kodeksining 99-moddasi, “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 01/20-32/1024-sonli xatini inobatga olib, 2023 yilgi Shirin shahar mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadida Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shirin shahar mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 17123274,0 ming so‘m, xarajatlari 40262020,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar 23138746,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil uchun shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 2-ilovaga muvofiq.

4. 2023-yil uchun shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun).

7. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq.

8. Avtotransport yig'implarning stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2023-yil uchun shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Jismoniy shaxslardan (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. 2023-yil uchun shahar byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 334508,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

13. 2023-yil uchun shahar byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 278658,0 ming so'mga belgilansin.

14. O'zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'implardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning mahalliy byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

elektr stantsiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig'i bo'yicha, tabiiy gaz uchun qat'iy belgilangan stavkadagi aktsiz solig'i, neft mahsulotlari uchun aktsiz solig'ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2022-yilning 1-iyul holatiga ko'ra shahar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda shahar byudjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
yuridik shaxslar yer solig‘i;

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun shahar byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6,5 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

16. Shirin shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Kuvandikov), Moliya bo‘limi (K.Keldibekov), Davlat soliq inspeksiyasi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

17. Shirin shahar Davlat soliq inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

18. Shirin shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (M. Kuvandikov), Moliya bo‘limi (K. Keldibekov):

shahar byudjetni tasdiqlangan xarajatlarning (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi

jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Xalq deputatlari shahar Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi shahar bo‘limi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Qaror rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror “Shirin sadosi” gazetasida rasmiy e‘lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari M. Kuvandikov, nazorat qilish Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashi huzuridagi mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitqiylalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N. Xo‘janovga yuklatilsin.

22. Mazkur qaror kuchga kirishi munosabati bilan Xalq deputatlari shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrda VI-40-100-9-131-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Kengash raisi



S.Sultonov

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Shirin shahar bo'yicha mahalliy byudjet daromadlarining reja ko'rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Summasi ming so'mda
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	8 982 072
2	Aylanmadan soliq	1 819 155
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	124 439
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	782 229
5	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	23 662
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	930 024
7	Ijara to'lovlari	33 589
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	175 175
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	668 013
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	476 056
	Jami	14 014 414
	Mobil aloqaga aktsiz solig'i, alkogolga aktsiz solig'i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad	3 108 860
1	Alkogolga aktsiz solig'i (shu jumladan pivo)	1 257 690
2	Mobil aloqaga aktsiz solig'i	539 480
3	Tamaki mahsulotlari	1 311 690
	Jami daromad	17 123 274

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat (ming so'mda)
JAMI	17 123 274	40 262 020
Shirin shahri	17 123 274	40 262 020

* Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiya solig'i tushumlaridan ajratiladigan mablag'larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun Shirin shahar mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko'rsatkichlar	miqdori (ming so'm)
Xarajatlar miqdori, Jami		40 262 020
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	27 607 219
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	3 000 000
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	147 822
	Zahira jamg'armasi	334 508
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (Obod mahalla dasturlari doirasida)	6 476 686
	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	2 676 695
1	Xalq ta'limi bo'limi	3 244 885
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 244 885
2	Maktabgacha ta'lim bo'limi	3 271 650
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 271 650
3	Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi	970 750
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	970 750
4	Madaniyat bo'limi	2 664 355
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 664 355
	Madaniyat bo'limi apparatini saqlash xarajati	175 118
	Madaniyat markazini saqlash xarajati	383 051
	Axborot-kutubxona markazi saqlash xarajati	482 730
	Bolalar musiqa va san'at maktabi saqlash xarajati	1 623 456
5	Sport maktabi	2 357 961
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 357 961
6	Moliya bo'limi	1 088 931
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 088 931
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	330 204
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	330 204
8	Bandlikka ko'maklashish markazi	671 547
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	671 547
9	Obodonlashtirish boshqarmasi	9 488 471
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 488 471
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	3 000 000
10	Shahar hokimligi	13 212 805
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	3 558 004
	<i>Shahar hokimligini saqlash xarajatlari</i>	2 240 399
	<i>Shahar Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari</i>	49 222
	<i>Ijtimoiy ko'nikma markazini saqlash xarajatlari</i>	56 373
	<i>Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari</i>	202 347
	<i>Shahar hokimligi mahallabay ishlash markazi xarajatlari</i>	1 009 663
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlariga	147 822
	Zahira jamg'armasi	334 508
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (Obod mahalla dasturlari doirasida)	6 476 686
	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	2 676 695
11	Yoshlar ishlari agentligi	1 127 969
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 127 969
12	Oila va xotin qizlar bo'limi	659 313
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	659 313
13	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	1 173 179
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 173 179
	<i>Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limini saqlash xarajatlari</i>	588 375
	<i>Mahalla fuqarolar yig'inlarini saqlash xarajatlari</i>	584 804

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
4-ilova

**2023-yil uchun Shirin shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan
tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar miqdorlari**

Hudud nomi	Tartibga soluvchi transfer miqdori (ming soʻmda)
JAMI	23 138 746
<i>shundan</i>	
Shirin shahri	23 138 746

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
5-ilova

**2023-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun
belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda
			Shirin shahri
1	Uy-joylar:		
	turar joy	umumiy maydonning	4 500
	noturar joy	1 kv.metri uchun	8 300
2	Avtomobil transporti:		
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695 000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 375 000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi.

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
6-ilova

**2023-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi
uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari**

Yig'implarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)	
	Shirin shahri	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	600 000	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	300 000	150 000

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
7-ilova

2023 yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imlarning stavkalari

№	Yig'imlar turlari	Bitta avtotransport (avtopoezd) uchun yig'im stavkasi (AQSh dollarida)
1	Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda va tranzitda harakatlanishi uchun yig'im, bitta avtomobil tashuvchi uchun (2-7 bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'imlar, yuk ko'tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog'iston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'imlar:	300
4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'imlar:	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzitda harakatlanganligi uchun yig'imlar, yuk ko'tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
6	Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali uchun yig'im	150
7	Afg'oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im	50

Izoh:

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab chet davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.
2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.
3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsienti qo'llaniladi.
4. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
8-ilova

2023-yil uchun shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari (foiz hisobida)

T/R	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qar'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda tsement xom ashyosi va tsement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stantsiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
1	Shirin shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahalalar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (ming.so‘mda)
1	Do‘stlik mahallasi	1,0	24000,0
2	Amir Temur mahallasi	1,0	24000,0
3	Mirzo Ulugbek mahallasi	1,0	24000,0
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	24000,0
5	Farhod mahallasi	1,0	24000,0
6	Nurobod mahallasi	1,0	24000,0
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	24000,0

Izoh: Shahar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahalalar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (so'mda)
1	Do'stlik mahallasi	1,0	226,0
2	Amir Temur mahallasi	1,0	226,0
3	Mirzo Ulugbek mahallasi	1,0	226,0
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	226,0
5	Farhod mahallasi	1,0	226,0
6	Nurobod mahallasi	1,0	226,0
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	226,0

Izoh: Shahar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-52-196-9-131-K/22-son qaroriga
11-ilova

Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha

CHEKLIST

Yo'nalishlar	Korrupsiyaviy omillar	Javoblar			Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	So'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi		yo'q		
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi		yo'q		
	Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi		yo'q		
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Diskretion vakolatlarining kengligi		yo'q		
	Aniq belgilanmagan vakolatlar		yo'q		
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi		yo'q		
	Davlat organi tomonidan o'zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi		yo'q		
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi		yo'q		
	Kechiktirib tartibga solish		yo'q		
	Manfaatlar to'qnashuvi		yo'q		
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi		yo'q		
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish		yo'q		
Huquq va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar		yo'q			
Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi		yo'q		
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o'rnatilishi		yo'q		
	Ortiqcha va asossiz talablarning o'rnatilganligi		yo'q		
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi		yo'q		
	To'lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi		yo'q		
	Sanksiyalarning nomutanosibligi		yo'q		
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi		yo'q		

Nazorat bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi		yo'q		
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar		yo'q		
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi		yo'q		